


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**PRAGMATIC ANALYSIS OF IMPLICATIVE AND PRESUPPOSITIONAL INTERROGATIVE SENTENCES IN LITERARY WORKS*****Gulnoza Isokhonovna Rakhmatova****Independent Researcher**Samarkand State Institute of Foreign Languages**Email: gulnoza@gmail.com**Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: presupposition, implicature, interrogative sentences, presuppositional questions, implicative questions, linguopragmatics, literary text, implicit meaning.

Received: 21.05.26**Accepted:** 22.05.26**Published:** 23.05.26

Abstract: This article explores the linguopragmatic features of presuppositional and implicative interrogative sentences based on the novels “Sarob” by Abdulla Qahhor and “An American Tragedy” by Theodore Dreiser. The study demonstrates that presuppositional interrogatives express implicit background knowledge, while implicative interrogatives convey indirect meanings and the inner psychological states of characters. The comparative analysis highlights differences in authorial style and the use of pragmatic devices. The findings emphasize the importance of pragmatic analysis in literary texts.

BADIIY ASARLARDAGI IMPLIKATIV VA PRESUPPOZITSION SO‘ROQ GAPLARNING PRAGMATIK TAHLILI***Gulnoza Isoxonovna Raxmatova****Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi**Email: gulnoza@gmail.com**Samarqand, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: presuppozitsiya, implikatura, presuppozitsion so‘roq gaplar, implikativ so‘roq gaplar, lingvopragmatika, badiiy matn, yashirin ma‘no, kommunikativ niyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada presuppozitsion va implikativ so‘roq gaplarning lingvopragmatik xususiyatlari “Sarob” romani hamda “Amerika” fojasi asari materiallari asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida presuppozitsion so‘roq gaplar orqali yashirin bilimlar va fon axboroti ifodalanishi, implikativ so‘roq gaplar esa

bilvosita ma'no hamda qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishda muhim vosita ekanligi aniqlanadi. Shuningdek, Abdulla Qahhor va Teodor Drayzer asarlarida ushbu so'roq gaplarning qo'llanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalari badiiy matnning pragmatik tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

ПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИМПЛИКАТИВНЫХ И ПРЕСУППОЗИЦИОННЫХ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Гулноза Исохоновна Рахматова

Независимый исследователь

Самаркандского государственного института иностранных языков

Электронная почта: gulnoza@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: пресуппозиция, импликатура, вопросительные предложения, пресуппозиционные вопросы, имплицативные вопросы, лингвопрагматика, художественный текст, скрытый смысл.

Аннотация: В статье рассматриваются лингвопрагматические особенности пресуппозиционных и имплицативных вопросительных предложений на материале романа "Sarob" и произведения "An American Tragedy". Анализ показывает, что пресуппозиционные вопросы выражают скрытые знания и фоновую информацию, тогда как имплицативные вопросы передают косвенные смыслы и внутренние переживания персонажей. Особое внимание уделяется сопоставлению авторских стилей Абдулла Каххар и Теодор Драйзер. Полученные результаты подчеркивают значимость прагматических средств в художественном тексте.

Kirish. Tilshunoslik sohasida so'roq gaplar ma'lumot so'rash vositasi bilan birgalikda diskursdagi pragmatik ma'nolarni ochib beruvchi muhim elementlardir. Ular nutq subyektlariga til birliklarining bevosita, so'zma-so'z ma'nosidan tashqariga chiqib, yashirin yoki implitsit maqsadlarni ifodalash imkonini beruvchi samarali kommunikativ strategiyalar sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matnlarda savol tuzilmalari ko'pincha hissiy, psixologik va uslubiy ahamiyatga ega bo'ladi. Abdulla Qahhor "Sarob" hamda Teodor Drayzer "Amerika fojeasi" asarlarida bunday lingvopragmatik tuzilmalarni o'quvchining matnni talqin etish jarayonini yo'naltirish va uning kognitiv-hissiy ishtirok darajasini oshirish maqsadida ongli ravishda qo'llaydilar. Xususan, implikativ so'roq gaplar bevosita aytilmagan, balki kontekst orqali anglanadigan ma'nolarni

ifodalaydi. Bunday savollar o'quvchidan chuqurroq ma'nolar va yashirin his-tuyg'ularni taxmin qilishni talab qiladi. Presuppozitsion so'roq gaplar esa savolda o'z-o'zidan qabul qilingan taxminlarga asoslanadi. "Implikatsiya" so'zi lotin tilidagi implicatiō dan kelib chiqqan bo'lib, u implicare ("o'rab qo'yimoq", "ichiga yashirmoq") fe'lidan hosil bo'lga[9] "Presuppozitsiya" so'zi lotin tilidagi prae ("oldin") va supponere ("asos qilib qo'yimoq") so'zlaridan kelib chiqqan.[9] Ular ko'pincha gapiruvchi va tinglovchi tomonidan tushunilishi kutiladigan umumiy bilim yoki kontekstual fonni aks ettiradi. Ushbu tuzilmalarni o'rganish pragmatika sohasiga kiradi, u ma'no kontekstda qanday qurilishini tahlil qiladi. Pragmatika til va uning foydalanuvchilari o'rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratadi, faqatgina shaklga emas, balki talqinga urg'u beradi. Badiiy asarlar insonning murakkab ruhiy kechinmalari hamda muallifning o'z fikrini ifodalashga qaratilgan maqsadlarini aks ettirishi sababli, ular pragmatik tahlil uchun sermazmun va boy manba vazifasini bajaradi. Abdulla Qahhor ijodiga mansub "Sarob" asaridagi kundalik dialoglar orqali ijtimoiy va hissiy haqiqatlarga nazar tashlaydi. Shu bilan birga, Teodor Drayzerning "Amerika fojeasi" asari esa yanada ichki va falsafiy hikoya uslubini taqdim etadi. Har ikkala asarda ham oddiy so'roq gaplardan keng foydalanilgan bo'lib, ular roman qahramonlarining ichki rivoji hamda asarning mazmunini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur asarlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning pragmatik xususiyatlarini madaniyatlararo nuqtayi nazardan o'rganish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, bunday yondashuv hikoya qilish uslubi va til ifodasidagi o'ziga xos farqlarni ham ochib beradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki matnda implikativ va presuppozitsion so'roq gaplarning funksional xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir. Umuman olganda, tildagi implitsitlik hodisasi barcha tillarga xos murakkab muammo bo'lib, u o'zbek tilshunosligida ham dolzarb masalalardan biri sifatida qaraladi. Kommunikantlar o'zaro muloqot jarayonida bevosita ifodalanmagan, biroq suhbat ishtirokchilari tomonidan oldindan anglab yetilishi zarur bo'lgan axborotlar nutqda ko'pincha yashirin tarzda ifodalanadi. Bunday yashirin, ammo umumiy bilimga tayanuvchi va muloqotning pragmatik ta'sir kuchini oshiruvchi ma'no qatlamlari presuppozitsiya deb yuritiladi [7]. Presuppozitsiya (prezumpsiya) tushunchasi nemis mantiqshunosi G. Frege g'oyalari bilan bog'liq. Uning ta'kidlashicha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosidir. G. Frege fikricha, asosiy hukm ko'pincha boshqa yashirin hukm bilan birga keladi. U mavjudlik bildiruvchi ikkinchi daraja. Ularning yashirin ma'nolar va taxmin qilingan ishoralarini ifodalashdagi rolini aniqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tahlil implikativ va presuppozitsion tuzilmalarning badiiy diskursda estetik va kommunikativ qiymatni qanday oshirganini o'rganadi.

Presuppozitsiya va implikativ ma'no tushunchalari pragmatikaning muhim kategoriyalaridan biri sifatida keng o'rganilgan. o'zbek tilshunosligida presuppozitsiya masalasi Rahimov U. tomonidan chuqur tadqiq etilgan bo'lib, u presuppozitsiyani nutq jarayonida avvaldan

ma'lum bo'lgan axborotni ifodalovchi semantik-pragmatik hodisa sifatida izohlaydi [5]. Tadqiqotchining fikricha, presuppozitsiya gap tarkibida ochiq ifodalanmagan, lekin nutq ishtirokchilari uchun oldindan ma'lum bo'lgan bilimlarga asoslanadi. Masalan: "Esingizdami, bo'yingizga jild osib 'urfon' maktabiga qatnaganlarimiz?"[1] mazmunidagi so'roq gap presuppozitsion xarakterga ega bo'lib, unda savol orqali yangi axborot talab qilinmaydi, balki oldindan ma'lum va suhbatdoshlar tomonidan birgalikda boshdan kechirilgan voqea esga olinadi. Mazkur gapning presuppozitsion asosi shundan iboratki, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida ilgari maktabga qatnashish bilan bog'liq umumiy tajriba mavjud bo'lgan deb qabul qilinadi. Shuning uchun ushbu konstruktsiyada asosiy kommunikativ maqsad ma'lumot so'rash emas, balki umumiy xotirani faollashtirish, nostaljik munosabatni ifodalash va o'tmishdagi birgalikdagi holatni tasdiqlashdan iboratdir. Gapning mazmunida kinoya yoki baholovchi implikatsiya sezilmaydi, shu bois u implikativ so'roq gap emas, balki presuppozitsiyaga tayangan xotiraviy-so'roq konstruktsiya sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, yuklamalar orqali yuzaga keladigan presuppozitsion ma'nolar nutqning ta'sirchanligini oshiradi va kommunikativ niyatni kuchaytiradi. Presuppozitsiya masalasi o'zbek tilidagi badiiy matnlar misolida ham tahlil qilingan. Jumladan, Turobova N. o'z tadqiqotida presuppozitsiyaning lingvopragmatik xususiyatlarini ochib berib, badiiy matnda yashirin ma'no qatlamlarini aniqlashda uning muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa presuppozitsion so'roq gaplarning nafaqat axborot uzatish, balki baholash, munosabat bildirish kabi funksiyalarni ham bajarishini ko'rsatadi [7]. Pragmatika doirasida implikativ ma'nolarni o'rganish esa Safarov Sh. tomonidan keng yoritilgan. Olim implikaturani nutqda bevosita ifodalanmagan, lekin kontekst orqali anglashiladigan ma'no sifatida talqin qiladi. Bu jihat implikativ so'roq gaplarning mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday gaplar ko'pincha javob talab qilmaydi, balki tinglovchiga ma'lum xulosa chiqarishni yuklaydi[6].

Xalqaro tilshunoslikda ham ushbu masalalar chuqur o'rganilgan. Stephen C. Levinson presuppozitsiyani nutqning semantik va pragmatik kesishgan nuqtasida joylashgan hodisa sifatida izohlab, uning kommunikativ jarayondagi rolini asoslab beradi. Uning fikricha, presuppozitsiyalar nutqning barqarorligini ta'minlaydi va muloqot ishtirokchilari o'rtasida umumiy bilim maydonini yaratadi. Shuningdek, George Yule implikatura tushunchasini sodda va aniq izohlab, uni nutqda yashirin tarzda yetkaziladigan ma'no sifatida talqin qiladi. U implikaturaning kontekstga bog'liqligini va nutqning samaradorligini oshirishdagi rolini alohida ta'kidlaydi [3].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar asosida aytish mumkinki, presuppozitsion va implikativ so'roq gaplar nutqning pragmatik qatlamini tashkil etuvchi muhim birliklar bo'lib, ular orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki yashirin ma'nolar, baholar va kommunikativ niyatlar ham ifodalanadi. Shu bois ushbu turdagi so'roq gaplarni o'rganish zamonaviy lingvopragmatikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Implikativ so‘roq gaplar tushunchasi pragmatikada bilvosita nutq harakatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bunday savollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob olishni maqsad qilmaydi, balki yashirin ma‘no yoki munosabatlarni ifodalaydi. Ular ko‘pincha ironiya, norozilik, shubha, yoki tanqid kabi his-tuyg‘ularni bildiradi. Masalan: o‘shandan sen kammisan? Ko‘rmaysanmi, qachon qarasang uyda. Qilaman desa ish qurib ketibtimi?[1] Berilgan misollar implikativ so‘roq gaplarning pragmatik xususiyatini yaqqol ko‘rsatadi. Bunday gaplarda savol shakli formal jihatdan saqlansa-da, uning asosiy vazifasi javob olish emas, balki nutq egasining yashirin munosabatini ifodalashdir. Masalan, “o‘shandan sen kimmisan?” gapida so‘zlovchi oddiy identifikatsiya savolini bermayapti. Bu yerda implikatsiya orqali norozilik, kinoya yoki suhbatdoshning o‘zini yuqori tutayotganiga nisbatan tanqid ifodalanadi. Savolning pragmatik ma‘nosi shundan iboratki, so‘zlovchi suhbatdoshning maqomi yoki da‘vosini shubha ostiga oladi va “sen kim bo‘lib shunday gapiryapsan?” degan yashirin mazmunni yetkazadi.

Ikkinchi misol: “Ko‘rmaysanmi, qachon qarasang uyda.” Bu gap ham tashqi ko‘rinishda savol shaklida bo‘lsa-da, aslida unda tanbeh ohangi ustun. So‘zlovchi suhbatdoshning e‘tiborsizligini yoki noto‘g‘ri xulosasini tanqid qiladi. Implikatsiya shundan iboratki, “uyda ekanini o‘zing ham ko‘rishing kerak edi” degan ma‘no yashiringan. Uchinchi misol: “Qilaman desa ish qurib ketibtimi?” Bu gapda so‘zlovchi shubha va inkor munosabatini bildiradi. Savol shakli orqali u bironing bahonasini rad etadi va aslida “faqat xohlagan bilan ish bitib qolmaydi” degan fikrni implitsit tarzda yetkazadi. Bu yerda ham savol javob olish uchun emas, balki qarama-qarshi fikrni kuchaytirish va tanqidni ifodalash uchun ishlatilgan. Implikativ savollarni talqin qilish ko‘p jihatdan kontekst va ishtirokchilarning umumiy tushunchasiga bog‘liq. Kontekstual bilimlar bo‘lmasa, mo‘ljallangan ma‘no noaniq qolishi mumkin. Bunday savollar kundalik suhbatlarda ham, badiiy matnlarda ham tez-tez ishlatiladi. Ular so‘zlovchilarga murakkab g‘oyalarni nozik va bilvosita tarzda ifodalash imkonini beradi. Aksincha, presuppozitsion savol gaplari tilshunoslikdagi presuppozitsiya tushunchasiga asoslanadi. Presuppozitsiya — bu gap aytilishidan oldin rost deb qabul qilinadigan ma‘lumotni anglatadi. Savol berilganda, uning tuzilmasida ayrim faktlar o‘z-o‘zidan to‘g‘ri deb qabul qilinadi. Masalan, “Nega kechikib kelding?” deb so‘rash shuni taxmin qiladiki, kishi haqiqatan ham kechikib kelgan. Bunday tuzilma javobni talqin qilishni shakllantiradi. Presuppozitsiyalar diskursda ma‘no qanday qurilishini tushunishda muhim hisoblanadi. Pragmatikada presuppozitsiyalar ko‘pincha so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi umumiy bilimlarga bog‘liq bo‘ladi. Ular muloqotda uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlaydi. Implikativ va presuppozitsion savollar kontekstga bog‘liq. Ularning ma‘nolari ishlatilgan vaziyatni hisobga olmasdan to‘liq tushunilmaydi. Adabiy tahlilda bu tuzilmalar muallifning niyatini va uslubiy tanlovlarini ochib beradi. Shuningdek, ular qahramonlarning fikr va his-tuyg‘ulariga nazar tashlashga imkon beradi. Bunday savol shakllarini

tahlil qilish orqali tadqiqotchilar til va ma'no o'rtasidagi o'zaro ta'sirni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Ushbu nazariy asos mazkur tadqiqotdagi taqqoslash tahlilining poydevorini tashkil etadi.

“Sarob” asarida implikativ so‘roq gaplar hissiy taranglik va ijtimoiy tashvishlarni ifodalash uchun keng qo‘llanilgan. Bu savollar ko‘pincha personajlar o‘rtasidagi dialoglarda uchraydi va kundalik muloqotni aks ettiradi. Ular norozilik, ironiya, shubha, ichki monolog yoki hafsalasi pir bo‘lishni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, “Nega mening otimni biladi, nega yana o‘zini past olgan tovush bilan so‘raydi?”[1] savoli so‘zma-so‘z ma‘nosidan tashqari chuqur mazmuni anglatadi. Bu gapda yashirin (oldindan qabul qilingan) ma‘nolar bor: U mening otimni biladi → bu fakt sifatida qabul qilingan. U past tovush bilan so‘raydi → bu ham allaqachon mavjud holat. Ya‘ni gap egasi bu narsalarni inkor qilmayapti, balki sababi nima ekanini tushunishga harakat qilyapti.

Romandagi “Ilgari ham she’rlar yuborganmidingiz?”[1] mazmunidagi so‘roq gap presuppozitsiyali so‘roq gap hisoblanadi. Bu savol shaklan yangi axborot olishga qaratilgandek ko‘rinsa-da, uning ichki semantik tuzilmasida oldindan haqiqiy deb qabul qilingan ma‘no mavjud bo‘lib, u “ilgari she’rlar yuborish holati bo‘lgan” degan presuppozitsiyaga tayanadi. Ya‘ni gapning kommunikativ maqsadi she’r yuborish jarayonining mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish emas, balki oldin sodir bo‘lgan deb qabul qilingan holatni eslatish va shu asosda suhbatni davom ettirishdan iboratdir. Shu bois ushbu konstruktsiya presuppozitsion so‘roq gap sifatida talqin qilinadi, chunki u “ilgari she’r yuborish faktining mavjudligi”ni oldindan bor deb hisoblaydi.

Teodor Drayzerning “Amerika fojeasi” asarida esa so‘roq gaplar turli semantik-pragmatik ma‘nolarni ifodalovchi murakkab birlik sifatida qo‘llanilgan. Ushbu asarda sof so‘roq, taajjub, gumon, buyruq, darak, tashvish, g‘azab, kinoya, norozilik va ruxsat kabi semalar ko‘pincha implikativ va presuppozitsion mazmun bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Sof so‘roq gaplarda asosiy maqsad axborot olish bo‘lib, masalan, Clyde obraziga nisbatan berilgan “Where are you going?”[2] kabi savollar sof so‘roq gap sifatida uning qayergadir ketayotgani so‘ralgan.

Taajjub semasi “You did that?”[2] mazmunidagi so‘roq gap taajjub semasi ifodalangan implikativ so‘roq gap hisoblanadi. Ushbu gap shaklan oddiy savol ko‘rinishiga ega bo‘lsa-da, uning asosiy pragmatik vazifasi ma‘lumot so‘rash emas, balki ajablanish, ishonmaslik va baholovchi munosabatni ifodalashdan iboratdir. Gapda taajjub semasi yaqqol seziladi, chunki u suhbatdoshning harakatiga nisbatan kutilmaganlik va hayratni bildiradi. Shu bilan birga, “buni sen haqiqatan ham qildingmi?” degan yashirin implikasiya mavjud bo‘lib, u emotsional va pragmatik ta‘sirni kuchaytiradi. Shu bois mazkur konstruktsiya presuppozitsiyadan ko‘ra implikativ

xarakterga ega bo‘lib, unda taajjub semasi yetakchi o‘rin tutadi va gapning kommunikativ maqsadini belgilaydi.

Gumon semasi bilan bog‘liq savollar, masalan, Clyde va Roberta o‘rtasidagi munosabatlarda “Do you really love her?”[2] shaklida namoyon bo‘lib, bunda implikasiya — ishonchsizlik va ushbu savolda oddiy ma‘lumot so‘rashdan tashqari, emotsional va baholovchi pragmatik ma‘no ham mavjud. “Really” (haqiqatan ham) so‘zi orqali so‘zlovchi suhbatdoshning javobiga nisbatan shubha, tekshiruv yoki ishonchsizlik bildiradi. Shu bilan birga, gapda “sen uni sevishingga ishonish qiyin” yoki “bu haqiqat ekanini aniqlash kerak” degan yashirin implikasiya mavjud bo‘lib, u savolni oddiy informativ so‘roqqa emas, balki emotsional-baholovchi so‘roqqa aylantiradi. Shu bois mazkur konstruktsiya implikativ so‘roq gap sifatida talqin qilinadi.

Buyruq semasi ko‘pincha bilvosita shaklda ifodalanadi: “Won’t you sit down?”[2] kabi gaplarda implikativ ma‘no — buyruq, presuppozitsiya — adresatning bu ishni bajara olishi

Darak semasi ifodalangan so‘roq gaplarda esa ma‘lumotni tasdiqlash kuzatiladi: “You know what happened, don’t you?”[2] — bu yerda implikasiya tasdiq kutish bo‘lsa, presuppozitsiya — voqea sodir bo‘lgan

Tashvish semasi Roberta bilan bog‘liq fojiaiy vaziyatlarda yaqqol ko‘rinadi: “What will happen to us?”[2] — implikasiya xavotir, presuppozitsiya esa xavfli vaziyatning mavjudligidir.

G‘azab semasi “Why did you do this to me?”[2] kabi gaplarda ifodalanib, bunda implikasiya ayblash, presuppozitsiya esa nojo‘ya harakat sodir etilganidir

Kinoya semasi “A fine gentleman, aren’t you?”[2] kabi shakllarda namoyon bo‘lib, implikasiya real ma‘noga zid bo‘ladi, presuppozitsiya esa vaziyatning salbiy ekanligidir.

Norozilik semasi “Is this what you call love?”[2] kabi savollarda ko‘rinadi, bunda implikasiya inkor, presuppozitsiya esa muayyan munosabat mavjudligidir.

Ruxsat semasi esa “Can I see you tonight?”[2] kabi gaplarda ifodalanib, implikasiya — ijozat so‘rash, presuppozitsiya — harakat hali amalga oshmaganidir.

Asardagi to‘liq presuppozitsion so‘roq gaplar quyidagi misollarda tadqiq etamiz. “Why had he come here at all?”[2]. Bu gap presuppozitsiyani o‘z ichiga oladi. He had come here (U bu yerga kelgan). Ya‘ni savol berilayotgan bo‘lsa ham, gap ichida harakat sodir bo‘lgani oldindan qabul qilingan. Bu gap presuppozitsion, chunki voqea allaqachon bo‘lib o‘tgan deb qabul qilinadi va sabab so‘raladi. George Yule ta‘rificha “presuppozitsiya — bu so‘zlovchi nutqni aytishdan oldin rost deb hisoblaydigan narsadir”[8]. “Could he escape the consequences of his actions?”[2] — U oqibatlardan qochishga urinishi mumkin / yoki qocholmasligi mumkinmi?. Bu gap implikasiya (imkoniyat/shart) asosida qurilgan. Natija aniq emas, faqat ehtimol bor. Bu yerda hech qanday fakt oldindan qabul qilinmagan, balki natija haqida taxmin yoki shubha mavjud. Bu gap implikativ, chunki u imkoniyat va ehtimolni bildiradi, presuppozitsiya holatini ifodalamaydi. Stephen C.

Levinson ta'kidlaganidek "implikaturalar — bu to'g'ridan-to'g'ri aytilmay, balki bilvosita ifodalanadigan ma'nolardir." [3]

Ko'plab hollarda implikativ savollar ritorik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular qahramonlarga tanqidni ochiqchasiga aytmasdan ifodalash imkonini beradi. Masalan: Nahot, bir yildan beri tuman qo'mitasining kotibi kim ekanini bilmasangiz? [1] — bu gap retorik so'roq gap bo'lib, unda so'zlovchi real javob olishni emas, balki hayrat va tilni ifodalaydi. Gap tarkibida presuppozitsiya mavjud: so'zlovchi "siz buni bilishingiz kerak edi" degan yashirin fikrni oldindan rost deb qabul qiladi. Shu bilan birga, implikativ ma'no ham mavjud bo'lib, u adresatning bilmasligi kutilmagan va noto'g'ri holat ekanini anglatadi, ya'ni so'zlovchi bilmaslikni tanqid qilmoqda. Bu bilvosita uslub voqeaviylikka ma'nodorlik qo'shadi. Bu o'quvchilarni matnni yanada sinchiklab o'qishga undaydi.

Drayzerning Amerika fojeasi asaridan olingan "How could he have done such a thing?" [2] kabi ritorik so'roq gap so'zlovchining real javob kutmasdan, balki hayrat va tanqidni ifodalashini ko'rsatadi. Bu gapda presuppozitsiya mavjud bo'lib, u shaxsning nomaqbul harakati allaqachon sodir bo'lgan va rost deb qabul qilinadi, shu bilan birga implikativ ma'no ham anglashiladi, ya'ni so'zlovchi ushbu xatti-harakatni kutilmagan va noto'g'ri deb baholab, yashirin tarzda uni tanqid qiladi. "Amerika fojeasi" asarida implikativ savollar ko'pincha qahramonning ichki monologida uchraydi. o'zbek matnining dialogik tabiati bilan solishtirganda, bu savollar introspektiv xarakterga ega. Masalan, "What would become of him now?" [2] savoli qahramonning ichki ziddiyatini aks ettiradi. U shubha va o'z-o'zini tanqid qilish his-tuyg'ularini ochib beradi. Bu savol tashqi javob izlamaydi, balki ichki mulohazani ifodalaydi. Drayzer bunday savollardan psixologik holatni tasvirlash uchun foydalanadi. Tilning soddaligi ma'noning murakkabligi bilan qarama-qarshi turadi. Ushbu matndagi implikativ savollar uning falsafiy ohangini kuchaytiradi. Ular kurash, sabr-toqat va inson chidamliligi mavzularini ta'kidlaydi. Ikkala asarda ham bu savollar kuchli ifoda vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular yashirin his-tuyg'ular va aytilmagan fikrlarni oshkor etadi. Ularning pragmatik vazifasi s'zma-so'z ma'nodan tashqaridagi mazmuni yetkazishdan iborat.

Oldindan taxmin qilingan so'roq gaplar ham adabiy asarlarda keng tarqalgan. "Sarob" romanida bu so'roq gaplar ko'p hollarda suhbat kontekstida uchraydi. Ular tinglovchining xatti-harakatlari yoki holati haqidagi taxminlarni aks ettiradi. Masalan, Ishda ittifoqlik kerak! -dedi uzun so'zidan xulosa chiqarib. -Ishimiz nima? Sit. Ish shaklimiz nima? Qo'shquloq. Ish sharoitimiz? Arava? Janjal nima? Yo'ldagi o'ydim- chuqur. Demak, o'ydim- chuqur qancha ko'p bo'lsa, aravamiz shuncha notinch bo'ladi. Arava notinch bo'lsa, qo'shquloqdagisi sut chayqaladi, to'kiladi. Ittifoq bo'lib, murosa bilan ishlash kerak! Murosa nima? Arqon: u bilan sigirning bir shoxidan bog'lab bo'lmaydi. Birodarlik kerak! [1] Mazkur matndagi so'roq gaplar pragmatik jihatdan tahlil

qilinganda, ular ikki turga — presuppozitsion va implikativ so‘roq gaplarga ajraladi. Jumladan, “Ishimiz nima?”, “Ish shaklimiz nima?” hamda elliptik shaklda berilgan “Ish sharoitimiz (nima)?” kabi savollar presuppozitsion xarakterga ega. Chunki bu gaplarda ma’lum bir axborot — ya’ni ishning mavjudligi, uning shakli va sharoiti borligi — oldindan qabul qilingan bo‘lib, so‘zlovchi ushbu ma’lumotlarga tayangan holda fikrni rivojlantiradi. Bu turdagi savollar real javob olish uchun emas, balki nutqni mantiqan davom ettirish va tushuntirishni izchil bayon etish vazifasini bajaradi. Boshqa tomondan, “Janjal nima?” va “Murosa nima?” kabi so‘roq gaplar implikativ xarakterga ega. Bu savollar orqali muallif to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob kutmaydi, balki metaforik va obrazli ifodalar yordamida yashirin ma’no beradi. Masalan, “Janjal nima?” savoliga “yo‘ldagi o‘ydim-chuqur” tarzidagi javob berilishi janjalning ish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Xuddi shuningdek, “Murosa nima?” savoli orqali berilgan “arqon” obrazi murosaning murakkab va nozik jarayon ekanini bilvosita ifodalaydi. Demak, bu turdagi so‘roq gaplar nutqda baholash, kinoya va yashirin mazmuni yetkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. Bunday savollar muloqotni yo‘naltirishda samarali bo‘ladi. Ular shuningdek, personajlar o‘rtasidagi shaxslararo dinamikani ham ochib beradi. oldindan farazga asoslangan savollar xavotir, qiziquvchanlik yoki hatto ayblovni ifoda etishi mumkin. Ularning ma’nosi ohang va kontekstga bog‘liq. Ko‘plab hollarda ular dialogda izchillikni saqlashga yordam beradi. Ular so‘zlovchilarga umumiy bilimlarga tayangan holda fikr yuritish imkonini beradi. Amerika fojeasi asaridan olingan quyidagi so‘roq gaplarda ham pragmatik xususiyatlar mavjud. “For was she not a poor working girl? And was he not a very rich man’s nephew?”.[2] Ushbu so‘roq gaplar presuppozitsion xarakterga ega bo‘lib, ularda ma’lum bir axborot — ya’ni qahramon qizning kambag‘al ishchi ekanligi va yigitning boy oilaga mansubligi — oldindan ma’lum va qabul qilingan. Shu bois bu savollar yangi ma’lumot olishga qaratilmagan, balki mavjud ijtimoiy tafovutni ichki nutq orqali yana bir bor tasdiqlash vazifasini bajaradi. Biroq, ushbu so‘roq gaplarda implikativlik elementi ham mavjud bo‘lib, ular orqali yashirin tarzda tengsizlik, munosabatning murakkabligi va fojeaviy oqibatlarga ishora qilinadi. Demak, bu kabi so‘roq gaplar nafaqat presuppozitsiyani ifodalaydi, balki qahramonning ichki kechinmalarini chuqurroq ochib beruvchi implikativ vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ikkala asarda ham bu so‘roq savollar diskursni tuzish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular tushunishni kuchaytiruvchi bilvosita ma’lumotni taqdim etadi. o‘quvchilar asosiy taxminlarni aniqlashlari kerak. Bu jarayon ularning matn bilan aloqasini chuqurlashtiradi. oldindan taxmin qilingan savollar shuningdek, qahramon rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Ular munosabatlar, e’tiqodlar va aloqalarni oshkor etadi. Ularning pragmatik ahamiyati shundaki, ular aniqlikni saqlagan holda ma’noni bilvosita yetkazish imkoniyatiga ega.

Ikki asarning qiyosiy tahlili so‘roq gaplardan foydalanishda ham o‘xshashliklar, ham farqlarni ko‘rsatadi. Ikkala matnda ham so‘roq gaplar grammatik tuzilmalardan ko‘ra ko‘proq

ma'no va hissiyotni yetkazishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq ularning ishlatilishi madaniy va uslubiy omillarga qarab o'zgaradi. Sarob romanida so'roq gaplar asosan dialogik xarakterga ega. Ular ijtimoiy o'zaro ta'sir va shaxslararo muloqotni aks ettiradi. Ushbu savollarning hissiy ohangi ko'pincha aniq va ifodali bo'ladi. Ular hafsalasi pir bo'lish, xavotir va hamdardlik kabi his-tuyg'ularni ifodalash uchun ishlatiladi. Bunga qarama-qarshi, "Amerika fojeasi" asarida savollar ko'proq ichki kechinmalarni aks ettirish uslubida qo'llaniladi. So'roq gaplar ko'pincha qahramonning ichki o'ylari tarkibiga kiradi. Bu esa yolg'izlik va o'z-o'zini tahlil qilish tuyg'usini uyg'otadi. Hikoya uslubidagi farq so'roq gaplarning funksiyasiga ta'sir qiladi. o'zbek tilidagi matnda ular ijtimoiy mavzularni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Inglizcha matnda esa ular falsafiy va ekzistensial g'oyalarni ta'kidlaydi. Ushbu farqlarga qaramay, har ikkala asarda yashirin ma'nolarni ifodalash uchun implikativ savollar ishlatiladi. Shuningdek, kontekstual ma'lumot berish uchun presuppozitsion so'roq gaplar ham qo'llaniladi. Har ikkala holatda ham bu tuzilmalar hikoyaning ma'nodorligini oshiradi. Ular o'quvchilarni ma'noni yuzaki darajadan tashqarida talqin qilishga undaydi. Taqqoslash tilning pragmatik xususiyatlarining umumiyligini ko'rsatadi. Ushbu tahlil so'roq gaplarni adabiy ifodada muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Xulosa. Implikativ va presuppozitsion so'roq gaplarning tahlili ularning badiiy diskursdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu tuzilmalar grammatik shakldan tashqariga chiqib, kuchli pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Sarob romani va Amerika fojeasi asarlaridagi so'roq gaplar hikoyaga sezilarli darajada hissa qo'shadi. Ular qahramonlarning ichki olamini va ularning hissiy tajribalarini ochib berishga yordam beradi. Xususan, implikativ savollar yashirin ma'nolarni va aytilmagan fikrlarni ifodalaydi. Ular mualliflarga murakkab g'oyalarni bilvosita yetkazish imkonini beradi. Presuppozitsion savollar esa talqinni shakllantiruvchi yashirin ma'lumotni taqdim etadi. Ular matndagi taxminlar va umumiy bilimlarni aks ettiradi. Ikkala turdagi savollar ham badiiy tilning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Shuningdek, ular matnning ifodaviy boyligini ham oshiradi. Ushbu tuzilmalar orqali o'quvchilar qahramonlar va mavzularni chuqurroq anglaydilar. Ikkala asarning qiyoslanishi so'roq gaplarning qo'llanilishidagi o'xshashliklar va farqlarni yoritadi. Bu pragmatik xususiyatlarning madaniy va uslubiy omillardan ta'sirlanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday xususiyatlarning inson muloqotida universal ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot adabiyotda til qanday funksiyalarni bajarishini yaxshiroq tushunishga hissa qo'shadi. Shuningdek, so'roq gaplarning ilmiy tadqiqi adabiyotshunoslikda pragmatik tahlilning ahamiyatini namoyish etadi. Kelgusidagi tadqiqotlar shunga o'xshash kontekstlarda boshqa til xususiyatlarini o'rganishi mumkin. Umuman olganda, so'roq gaplar ma'noni shakllantirishda va kitobxonlarning qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor. Sarob. — Toshkent: Turon zamin nashriyoti MCHJ, 2024. — 272 bet.
2. Dreiser T. An American Tragedy. — New York: Signet Classics, 2000. — 856 p.
3. Levinson S. C. Pragmatics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — p. 97–100.
4. Rahimov U. Lisoniy presuppozitsiya // Ayub G'ulom va o'zbek tilshunosligi. — Toshkent, 2004. — B. 58.
5. Rahimov U. o'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. — Samarqand, 1994. — B. 7, 32, 91.
6. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. — Toshkent, 2008. — B. 318.
7. Turobova N. Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya // Conferences. — 2025. — T. 1. — № 01. bb.418-423
8. Yule G. Pragmatics. — oxford: oxford University Press, 1996. — pp. 25–26.
9. Etymological Dictionary of Latin de Vaan M. Etymological Dictionary of Latin and the other Italic Languages. — Leiden : Brill, 2008. — 825 p.